O'zbekistonda turizm xavfsizligini ta'minlash davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Prezident farmonlari va hukumat qarorlari asosida turistlar uchun xavfsiz, qulay va zamonaviy turistik muhit yaratish bo'yicha tizimli islohotlar amalga oshirilmoqda. "Xavfsiz turizm" konsepsiyasi esa mamlakatning xalqaro turizm bozorida imijini oshirishda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 05.01.2019-yildagi "O'zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5611-son²li Farmoniga ko'ra, yuqori turistik salohiyatga ega bo'lgan hududlarda xavfsiz turizmni ta'minlash bo'yicha ichki ishlar organlarining maxsus bo'linmalarini tashkil qilish, ularni zamonaviy texnika va transport vositalari bilan ta'minlash to'g'risida aytib o'tilgan.

O'zbekistonda xavfsizlik tizimida yaratilgan imkoniyatlar sayyohlar sonining muntazam oshib borayotganining yaqqol isboti bo'lib xizmat qiladi. Bunda Milliy statistika qo'mitasining dastlabki ma'lumotlariga ko'ra, 2025-yilda jami 11,7 mln nafar chet el fuqarolari turistik maqsadlarda O'zbekistonga tashrif buyurgan. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davri bilan solishtirilganda 3,7 mln nafarga yoki 46,8 % ga oshgan³.

O'zbekiston 121 mamlakatni o'z ichiga olgan "Safety Perception Index 2023" — dunyoning eng xavfsiz mamlakatlari reytingida 1-o'rinni egalladi⁴.

"Safety Perception Index" beshta faktorga e'tibor qaratadi: oziq-ovqat va suv, zo'ravonlik jinoyatlari, noqulay ob-havo sharoiti, aqliy sog'lomlik hamda mehnat muassasalaridagi xavfsizlik. Ushbu omillar mamlakatlarning xavfsizlik reytingi uchun asos bo'ladigan obrazni ishlab chiqishda muhim asos bo'lib xizmat qiladi. O'zbekistonning mazkur reytingda birinchi o'rinda ekanligi chet ellik sayyohlarning mamlakatimizga bemalol kelib-ketishlari uchun zamin yaratadi.

Tadqiqot maqsadi turistlar orasida o'tkazilgan so'rovnomanini tahlil qilgan holda, ularning Buxorodagi xavfsizlik tizimi haqidagi fikrlarini o'rganish, kamchiliklarni aniqlash va takliflar berib, xavfsizlikni yanada kuchaytirishga qaratilgan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Turizm xavfsizlik masalalari xalqaro ilmiy tadqiqotlarda eng ko'p o'rganilayotgan mavzulardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, turistlarning xavfsizlikni qanday qabul qilishi va bu holatning sayohat qaroriga ta'siri ko'plab olimlar tomonidan tahlil qilingan.

1 UNWTO (World Tourism Organization). (2023). International Tourism and Safety Report

2 <https://lex.uz/docs/-4143188>

3 O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi rasmiy veb sayti - <https://stat.uz/uz/>

4 Yuz.uz axborot portali - Safety Perception Index bo'yicha ma'lumotlar <https://yuz.uz/index.php/ru/news/uzbekistan-zanyal-pervoe-mesto-v-reytinge-samx-bezopasnx-stran>



Turizmda xavfsizlik masalalarini o'rganishda "Perceived Risk Theory", ya'ni "Qabul qilinadigan xavf nazariyasi" muhim nazariy yondashuvlardan biri hisoblanadi. Ushbu nazariya Raymond Bauer tomonidan 1960-yilda ishlab chiqilgan bo'lib, iste'molchilarning qaror qabul qilish jarayonida xavfni qanday qabul qilishi muhim omil ekanligini ta'kidlaydi. Keyinchalik ushbu nazariya turizm tadqiqotlarida ham keng qo'llanila boshlandi. Nazariyaga ko'ra, turistlar sayohat davomida mavjud real xavfdan ko'ra, xavfni qanday his qilishi va qabul qilishi asosiy ahamiyatga ega hisoblanadi. Turistlar notanish muhit, til bilmaslik, moliyaviy xavf, transport muammolari yoki jinoyatchilik bilan bog'liq xavotirlarni oldindan baholaydi va shu asosda destinatsiyani tanlaydi⁵.

Yang E. C. L. va Vijaya Nair (2015) turistlarning xavfsizlik hissi sayohat qaroriga bevosita ta'sir qilishini ta'kidlaydi. Ularning fikricha, turistlar xavfsizlik darajasi yuqori deb hisoblagan destinatsiyalarga ko'proq tashrif buyuradi⁶. Shuningdek, Sánchez-González va hamkorlari (2024) xavfsizlik destinatsiyaning raqobatbardoshligi va xalqaro imijini belgilovchi muhim omillardan biri ekanligini qayd etadi⁷. Baş va Bayraktaroğlu (2024) turizmde eng ko'p uchraydigan muammolar sifatida ortiqcha narx olish, mayda firibgarlik va transport bilan bog'liq muammolarni ko'rsatadi⁸.

Cohen (1972) turistlarning xatti-harakatlari va psixologik holatini o'rganar ekan, sayohat davomida xavfsizlik hissi turistlarning umumiy taassuroti va qoniqish darajasiga bevosita ta'sir qilishini ta'kidlagan.⁹ Pizam va Mansfeld (1996) esa turizm xavfsizligini turizm industriyasining barqaror rivojlanishidagi eng muhim omillardan biri sifatida baholaydi. Ularning tadqiqotlariga ko'ra, jinoyatchilik, terrorizm va ijtimoiy beqarorlik turistlar oqimining keskin kamayishiga sabab bo'lishi mumkin¹⁰.

Ding va Wu (2022) tomonidan olib borilgan tadqiqotda turistlarning xavfsizlikni qabul qilish darajasi destinatsiya imijining shakllanishida muhim rol o'ynashi aniqlangan¹¹.

Khasawneh va Alfandi (2019) tadqiqotida turistlar o'zlarini xavfsiz his qilgan hududlarga qayta tashrif buyurish ehtimoli yuqori ekanligini ta'kidlagan¹².

Shuningdek, Najar va Rather (2023) tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishda turistlarning xavf-xatarlarni qabul qilishi destinatsiyaga sodiqlik darajasiga ta'sir qiluvchi asosiy omillardan biri sifatida baholangan¹³.

Hsu, Lin va Lee (2017) esa Xitoylik turistlarning sayohat qarorlarini o'rganish jarayonida xavfsizlik va himoya tizimlari turistlarning destinatsiya tanlashida muhim ahamiyat kasb etishini aniqlagan¹⁴.

Turizmde perceived risk bir necha ko'rinishda namoyon bo'ladi: jismoniy xavf (jinoyatchilik, terrorizm, avariya); moliyaviy xavf (firibgarlik, ortiqcha xarajat); sog'liq bilan bog'liq xavf; psixologik xavf; xizmat sifati bilan bog'liq xavf; transport va logistika muammolari.

Agar turist destinatsiyani xavfsiz deb hisoblasa, uning ushbu hududni tanlash ehtimoli ortadi. Aksincha, xavf hissining yuqoriligi turistlar oqimining kamayishiga olib kelishi mumkin. Shu sababli zamonaviy turizmde xavfsizlikni ta'minlash nafaqat ijtimoiy, balki iqtisodiy ahamiyatga ham ega hisoblanadi.

Bugungi kunda O'zbekistonda amalga oshirilayotgan "Xavfsiz turizm" siyosati turistlarda ijobiy xavfsizlik tasavvurini shakllantirishga xizmat qilmoqda. Turistik hududlarda videokuzatuv tizimlarining o'rnatilishi, turistik politsiya faoliyati, mehmonxonalar xavfsizlik standartlari va zamonaviy infratuzilmaning rivojlantirilishi turistlarning xavfni past darajada qabul qilishiga yordam bermoqda.

Mazkur tadqiqot davomida o'tkazilgan so'rovnoma natijalari ham turistlarning xavfsizlikni qabul qilishi ularning sayohat taassurotlari va destinatsiyani qayta tanlash ehtimoliga sezilarli ta'sir ko'rsatishini tasdiqlaydi. Respondentlarning aksariyati xavfsizlik darajasi yuqori bo'lgan hududlarda o'zlarini erkin va qulay his qilishlarini bildirgan. Ayniqsa, jamoat xavfsizligi, transport tizimi va mahalliy aholining munosabati turistlarning umumiy qoniqish darajasiga bevosita ta'sir qiluvchi asosiy omillar sifatida qayd etilgan.

5 Bauer, R.A. (1960). Consumer Behavior as Risk Taking. *Dynamic Marketing for a Changing World*. American Marketing Association.

6 Yang, E.C.L., & Nair, V. (2015). Tourism at Risk: A Review of Risk and Perceived Risk in Tourism. *Asia-Pacific Journal of Innovation in Hospitality and Tourism*.

7 Sánchez-González, P. va boshqalar. (2024). Smart Tourist Destinations (STD) Management and Security from a Systematic and Bibliometric Review

8 Baş, M., & Bayraktaroğlu, E. (2024). Crime in Tourism: A Systematic Literature Review and Bibliometric Analysis.

9 Cohen, E. (1972). Toward a Sociology of International Tourism. *Social Research*, 39(1), 164–182.

10 Pizam, A., & Mansfeld, Y. (1996). *Tourism, Crime and International Security Issues*. Wiley Publishing.

11 Ding, G., & Wu, J. (2022). Influence of tourism safety perception on destination image: A case study of Xinjiang, China. *Sustainability*, 14(3), 1663.

12 Khasawneh, M. S., & Alfandi, A. M. (2019). Determining behaviour intentions from the overall destination image and risk perception. *Tourism and hospitality management*, 25(2), 355-375.

13 Najar, A. H., & Rather, A. H. (2023). Assessing the relationship of perceived risks with destination image and destination loyalty: a tourist's perspective visiting volatile destinations. *Journal of Hospitality and Tourism Insights*, 6(3), 1357-1379.

14 Hsu, S. C., Lin, C. T., & Lee, C. (2017). Measuring the effect of outbound Chinese tourists travel decision-making through tourism destination image and travel safety and security. *Journal of Information and Optimization Sciences*, 38(3-4), 559-584.



TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda birlamchi hamda ikkilamchi ma'lumotlardan hamda Bauerning "Perceived Risk Theory" (Qabul qilinadigan xavf nazariyasi)dan foydalanildi. Birlamchi ma'lumotlar Google Forms'da maxsus tuzilgan so'rovnoma yordamida Buxoroning Eski shahar qismida tasodifiy tanlab olingan mehmonlar orasida o'tkazildi va so'rovnoma davomida erkin suhbat olib borildi. Ikkilamchi manbalar rasmiy nashrlar, saytlar va boshqa chop etilgan materiallardan yig'ildi hamda bir nechta xorijiy davlatlar taqqoslandi. Umumiy hisobda 66 nafar respondent tadqiqotga jalb etildi. Ma'lumotlar statistikasi uchun Google Forms'ning tahlil bo'limidagi turli xil diagrammalardan foydalanildi, har bir savol bo'lim tarzida yoritib berildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot 2026-yil 16–23-aprel kunlari davomida o'tkazildi. Ishtirokchilarning barchasi (66 respondent) savollarga to'liq javob berdi. So'rovnomaning boshlang'ich savollari ishtirokchilarning qaysi mamlakatdan tashrif buyurganligi, yoshi va Buxoroda necha kun davomida bo'lishini aniqlashga qaratilgan (1-jadval).

1-jadval
Respondentlarning demografik tahlili¹⁵

T/r	Davlati	Yoshi	Tashrif muddati	T/r	Davlati	Yoshi	Tashrif muddati
1	Germaniya	18-25	1-3 kun	34	Qozog'iston	36-45	1 haftadan ortiq
2	Italiya	26-35	4-7 kun	35	Turkiya	46-55	1-3 kun
3	Rossiya	36-45	1 haftadan ortiq	36	Yaponiya	56+	4-7 kun
4	Avstraliya	46-55	1-3 kun	37	Xitoy	18-25	1 haftadan ortiq
5	Fransiya	56+	4-7 kun	38	Kanada	26-35	1-3 kun
6	Ispaniya	18-25	1 haftadan ortiq	39	Malayziya	36-45	4-7 kun
7	Norvegiya	26-35	1-3 kun	40	Germaniya	46-55	1 haftadan ortiq
8	Portugaliya	36-45	4-7 kun	41	Italiya	56+	1-3 kun
9	Belgiya	46-55	1 haftadan ortiq	42	Rossiya	18-25	4-7 kun
10	Niderlandiya	56+	1-3 kun	43	Avstraliya	26-35	1 haftadan ortiq
11	Singapur	18-25	4-7 kun	44	Fransiya	36-45	1-3 kun
12	Buyuk Britaniya	26-35	1 haftadan ortiq	45	Ispaniya	46-55	4-7 kun
13	AQSh	36-45	1-3 kun	46	Norvegiya	56+	1 haftadan ortiq
14	Qozog'iston	46-55	4-7 kun	47	Portugaliya	18-25	1-3 kun
15	Turkiya	56+	1 haftadan ortiq	48	Belgiya	26-35	4-7 kun
16	Yaponiya	18-25	1-3 kun	49	Niderlandiya	36-45	1 haftadan ortiq
17	Xitoy	26-35	4-7 kun	50	Singapur	46-55	1-3 kun
18	Kanada	36-45	1 haftadan ortiq	51	Buyuk Britaniya	56+	4-7 kun
19	Malayziya	46-55	1-3 kun	52	AQSh	18-25	1 haftadan ortiq
20	Germaniya	56+	4-7 kun	53	Qozog'iston	26-35	1-3 kun
21	Italiya	18-25	1 haftadan ortiq	54	Turkiya	36-45	4-7 kun
22	Rossiya	26-35	1-3 kun	55	Yaponiya	46-55	1 haftadan ortiq
23	Avstraliya	36-45	4-7 kun	56	Xitoy	56+	1-3 kun
24	Fransiya	46-55	1 haftadan ortiq	57	Kanada	18-25	4-7 kun
25	Ispaniya	56+	1-3 kun	58	Malayziya	26-35	1 haftadan ortiq
26	Norvegiya	18-25	4-7 kun	59	Germaniya	36-45	1-3 kun
27	Portugaliya	26-35	1 haftadan ortiq	60	Italiya	46-55	4-7 kun
28	Belgiya	36-45	1-3 kun	61	Rossiya	56+	1 haftadan ortiq
29	Niderlandiya	46-55	4-7 kun	62	Avstraliya	18-25	1-3 kun


15 Manba: muallif ishlanmasi.



30	Singapur	56+	1 haftadan ortiq	63	Fransiya	26-35	4-7 kun
31	Buyuk Britaniya	18-25	1-3 kun	64	Ispaniya	36-45	1 haftadan ortiq
32	AQSh	26-35	4-7 kun	65	Norvegiya	46-55	1-3 kun
33	Qozog'iston	36-45	1 haftadan ortiq	66	Portugaliya	56+	4-7 kun


Ushbu savollarga ko'ra, Germaniyadan 21,2 % (14 kishi), Rossiyadan 9 % (6 kishi), Italiyadan 9 % (6 kishi), Avstraliyadan 4 nafar, Fransiya, Ispaniya va Norvegiyadan 3 nafardan, Portugaliya, Belgiya, Niderlandiya, Singapur, Buyuk Britaniya, AQSh va Qozog'istondan 2 nafardan, Turkiya, Yangi Zelandiya, Yaponiya, Chexiya, Vengriya, Finlyandiya, Qirg'iziston, Irlandiya, Avstriya, Xitoy, Kanada va Malayziya davlatlaridan 1 nafardan sayyoh tashrif buyurganligi aniqlandi.

Ishtirokchilar yosh taqsimotida eng yuqori ko'rsatkich 31,8 % (21 kishi) bilan 65–75 yosh oralig'idagi, eng kam ko'rsatkich esa 10,6 % (7 kishi) bilan 45–55 yoshdagi sayyohlarni tashkil etadi. Ularning 60,6 % (40 kishi) ushbu hududda 1–2 kun davomida va 31,8 % (21 kishi) 3–5 kungacha Buxoroda qolishlarini ta'kidlashgan (1-rasm).



1-rasm. Turistlarning umumiy xavfsizlik hissi¹⁶

To'plangan statistika bo'yicha 49 nafar (74,2 %) — juda xavfsiz, 16 nafar (24,2 %) — xavfsiz va faqat 1 nafar (1,5 %) sayyoh neytral javob variantini belgilagan (2-rasm).




2-rasm. Xavfsizlik nazorati bo'yicha tahlili¹⁷

2-rasmda keltirilgan xavfsizlik nazorati bo'yicha berilgan savolga 57,6 % (38 nafar) respondent yetarli va 19,7 % (13 nafar) juda yuqori ko'rsatkichlarda Buxoro turistik hududida politsiya nazorati faoliyatini a'lo darajada baholagan. Shuningdek, respondentlar orasida eng kam ko'rsatkichlar bilan 4,5 % (3 nafar) juda past, 9,1 % (6 nafar) past va 9,1 % (6 nafar) xavfsizlik nazoratini sezmaganligini ta'kidlagan (3-rasm).


16 Tadqiqotlar asosida olingan natijalar

17 Tadqiqotlar asosida olingan natijalar



3-rasm. Ma'lumot yetishmasligi tufayli qanday muammolarga duch keldingiz?¹⁸

Axborot yetishmovchiligi borasida respondentlarning 60,6 % (40 nafar) hech qanday muammoga duch kelmaganligini, bunga qarama-qarshi holatda esa 1,5 % (1 nafar) gidlar yetishmovchiligi va 1,5 % (1 nafar) turistik hududda favqulodda xizmat aloqa raqamlari ko'rsatilmaganligidan aziyat chekkanini aytgan (4-rasm).



4-rasm. Sayyohlar duch kelgan muammolar¹⁹

Respondentlar sayohat davomida firibgarlikka uchramagan, ammo mahalliy aholi tomonidan bezovtalik 3 % va cho'ntak o'g'irliigi 3 % (2 nafar) bilan bog'liq holatlar qayd etilgan. Bozor, do'kon va taksi xizmatida yuqori narxlardan 16,7 % (11 nafari) zarar ko'rgan.

Respondentlarning aksariyati — 49 nafar (74,2 %) o'zini xavfsiz his qilgani Buxoroda shakllangan xavfsizlik muhiti turistlarning destinatsiyaga bo'lgan ishonchini oshirayotganini ko'rsatadi. Bu esa Perceived Risk Theory'da ta'kidlangan xavfsizlik hissining sayohat qaroriga ta'sir qilishini tasdiqlaydi.

Xavfsizlik borasida 57,6 % (38 nafar) yetarli va 19,7 % (13 nafar) juda yuqori — ushbu ko'rsatkichlar turistik hududlarda politsiya nazorati faoliyatini hamda turizm sohasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar, Prezident Farmonlarining kuchga kirganligini dalil sifatida ko'rsatib beradi. Ammo sayyohlar orasida, rasmda ko'rsatilganidek, turizm politsiyasi nazoratini 4,5 % juda past yoki 9,1 % sezilmadi kabi javob berganlar ham bo'ldi. Ushbu javoblar ham, albatta, ahamiyatga ega va soha ustida yanada mukammalroq ishlar olib borishga undaydi.

Bauerning "Perceived Risk Theory" nazariyasida aytilganidek, real xavf kichik bo'lsa ham, ya'ni taksi narxlari (6 nafar, 9,1 %), xavfsiz haydash (9 nafar, 13,6 %), tunda mashina yetishmovchiligi (2 nafar, 3 %), o'g'irlik (2 nafar, 3 %), til muammolari (21 nafar, 31,8 %) kabi ayrim holatlar turistlar uchun xizmatlar sifatini yanada takomillashtirish imkoniyatlari mavjudligini ko'rsatadi. Qolaversa, so'rovnoma to'ldirilguncha suhbat davomida mehmonxonalarda malakali kadrlar salohiyatini yanada rivojlantirish va sayyohlarning muammolarini yanada samarali hal etish bo'yicha imkoniyatlar mavjudligi ta'kidlandi. Ushbu yo'nalishlarda olib boriladigan ishlar qayta tashrif buyuruvchilar sonining ortishiga va yangi sayyohlarni jalb etishga xizmat qilishi mumkin.

¹⁸ Tadqiqotlar asosida olingan natijalar

¹⁹ Tadqiqotlar asosida olingan natijalar



Umuman olganda, tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, Buxoroga tashrif buyurgan sayyohlarning ko'p qismi o'zini xavfsiz his qiladi va bu turizmni rivojlantirish, xavfsiz hudud rejasini amalga oshirishga qaratilgan tadbirlar samarasi ekanligini ifodalaydi. Mavjud kamchiliklar ustida ishlash va ularni bartaraf etish talab etiladi, shundagina qayta tashriflar soni ortadi va butunlay xavfsiz hudud maqomi oshadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xavfsizlik — bu inson, jamiyat yoki davlatning turli xavf va tahdidlardan himoyalangan holati hisoblanadi. U odamlarning hayoti, sog'lig'i, mol-mulki va ruhiy holatini saqlashga xizmat qiladi.

Turizm sohasida xavfsizlik deganda esa turistlarning sayohat davomida o'zini himoyalangan, xotirjam va xavf-xatarsiz his qilishi tushuniladi.

So'nggi yillarda mamlakatimizga tashrif buyuruvchilar soni aynan siyosiy xavfsizlik natijasida oshib borayotganligini isbotladi. Tashrif davomida sayyohlar chindan ham xavfsiz davlat ekanligiga amin bo'lishganmi yoki muammolarga duch kelishganini aniqlash maqsadida tadqiqot ishlari olib borildi. Bu tadqiqot bir hafta davomida 66 nafar xorijiy sayyoh orasida o'tkazildi va qisman bo'lsa-da, natijaga erishdi.

Natijalar shuni ko'rsatadiki, aytilganidek, chindan ham nafaqat Buxoro hududi, balki butun O'zbekiston hududi turizm uchun juda xavfsiz hisoblanadi. Sayyohlarning aksariyati o'zini xavfsiz his qilganini ta'kidlashadi.

O'tkazilgan tadqiqot natijalariga asoslangan holda bir necha takliflarni amalga oshirish hududda sayyohlar xavfsizligi darajasini oshirishga xizmat qiladi. Hudud imijini, xavfsizligini yuksaltirishga qaratilgan qaror va farmonlarni yanada takomillashtirish va ularni to'liq amalda qo'llash hamda rioya qilish, muloqotdagi to'siqlar, kadrlar yetishmovchiligining oldini olish maqsadida:

1. Xorijiy tillarni o'qitishni kuchaytirish, mehmonxona, restoran va turistik obyektlarda QR-kodli ko'p tilli ma'lumotlarni joriy qilish, yo'l ko'rsatkichlari, menyular va tarixiy obyekt ma'lumotlarini kamida ingliz va rus tillarida berish;

2. Talabalarni o'qish davrida mehmonxona, turfirma va gidlik faoliyatiga jalb qilish, yoshlar orasida turizmning daromadli va istiqbolli soha ekanligini targ'ib qilish, turizm rivojlangan davlatlar bilan tajriba almashish dasturlarini tashkil qilish.

Firibgarlik va yuqori narxlarni bartaraf qilish maqsadida esa:

1. Turistik xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlarni muntazam tekshirish, litsenziyasiz gid va noqonuniy xizmatlarga qarshi qat'iy choralar ko'rish, rasmiy turizm platformalari va mobil ilovalarda tasdiqlangan narxlar hamda xizmatlar ro'yxatini joylashtirish;

2. Taksi, ekskursiya, mehmonxona va suvenir mahsulotlari uchun tavsiya etilgan narx diapazonini ishlab chiqish;

3. Narx belgilashda ochiqlik siyosatini olib borish, turistik hududlarda muntazam narx monitoringini o'tkazish, asossiz narx oshirgan tadbirkorlarga nisbatan intizomiy choralarini qo'llash va shu kabi bir qancha takliflarni amalda qo'llash orqali turistlar ishonchining oshishi, xizmat sifatining yaxshilanishi hamda hududning turistik obro'si va imijining mustahkamlanishi, turistlar sonining ortishiga yordam beradi.

Tadqiqot O'zbekiston Respublikasining Buxoro turistik hududi bilan cheklangan. Ushbu tadqiqot natijalari orqali "O'zbekiston butunlay xavfsiz mamlakat" deb atab bo'lmaydi. Kelajakda boshqa turistik hududlar, ya'ni Samarqand va Xivada ham tadqiqot o'tkazib, hududlar orasida solishtirish va taqqoslash amalga oshirib, O'zbekiston haqida so'nggi xulosani e'lon qilish mumkin. Bundan tashqari, tadqiqot natijalari Bauerning nazariyasi asosida tahlil qilinganligi sababli, so'rovnomaning qolgan natijalari ochib berilmadi. So'rovnomada yuqori narxlar, videokuzatuv, turizm politsiyasi nazoratiga ko'p e'tibor qaratilgan, shu sababli keyingi tadqiqotlarda piyodalar o'tish yo'lagida mahalliy aholining munosabati, bozor sotuvchilarining sotuv jarayonidagi tazyiqlariga uchrash holatlari haqida savollar yuzasidan ham tadqiqot o'tkazilishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. UNWTO (World Tourism Organization). (2023). International Tourism and Safety Report
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 05.01.2019-yildagi "O'zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5611-sonli Farmoni // URL: <https://lex.uz/docs/-4143188>
3. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi rasmiy veb sayti - <https://stat.uz/uz/>
4. Yuz.uz axborot portali - Safety Perception Index bo'yicha ma'lumotlar <https://yuz.uz/index.php/ru/news/uzbekistan-zanyal-pervoe-mesto-v-reytinge-samx-bezopasnx-stran>
5. Bauer, R.A. (1960). Consumer Behavior as Risk Taking. Dynamic Marketing for a Changing World. American Marketing Association.



6. Yang, E.C.L., & Nair, V. (2015). Tourism at Risk: A Review of Risk and Perceived Risk in Tourism. *Asia-Pacific Journal of Innovation in Hospitality and Tourism*.
7. Sánchez-González, P. va boshqalar. (2024). Smart Tourist Destinations (STD) Management and Security from a Systematic and Bibliometric Review.
8. Baş, M., & Bayraktaroğlu, E. (2024). Crime in Tourism: A Systematic Literature Review and Bibliometric Analysis.
9. Cohen, E. (1972). Toward a Sociology of International Tourism. *Social Research*, 39(1), 164–182.
10. Pizam, A., & Mansfeld, Y. (1996). *Tourism, Crime and International Security Issues*. Wiley Publishing.
11. Ding, G., & Wu, J. (2022). Influence of tourism safety perception on destination image: A case study of Xinjiang, China. *Sustainability*, 14(3), 1663.
12. Khasawneh, M. S., & Alfandi, A. M. (2019). Determining behaviour intentions from the overall destination image and risk perception. *Tourism and hospitality management*, 25(2), 355-375.
13. Najar, A. H., & Rather, A. H. (2023). Assessing the relationship of perceived risks with destination image and destination loyalty: a tourist's perspective visiting volatile destinations. *Journal of Hospitality and Tourism Insights*, 6(3), 1357-1379.
14. Hsu, S. C., Lin, C. T., & Lee, C. (2017). Measuring the effect of outbound Chinese tourists travel decision-making through tourism destination image and travel safety and security. *Journal of Information and Optimization Sciences*, 38(3-4), 559-584.
15. <https://www.numbeo.com/crime/>
16. <https://www.visionofhumanity.org/maps/>
17. Dushanova, Y., Kadirova, S., Kurbanova, M., & Khaydarova, D. (2025). Smart and inclusive tourism in Bukhara: towards accessibility in heritage city. *Frontiers in Sports and Active Living*, 7, 1624663.
18. Ibragimov, N., & Kurbanova, M. (2016). Destination marketing approach of enhancing the competitiveness of Bukhara tourist destination. *Наука. Мысль: электронный периодический журнал*, (9), 105-109.
19. Nematilloevna, K. N., Salimovna, N. G., & Muxammedovna, T. M. (2021). Potential, Mechanisms and Scenarios of Sustainable Tourism Development in Regions of Uzbekistan. *Central Asian Journal of Innovations on Tourism Management and Finance*, 2(12), 32-39.
20. Qizi, X. N. N. (2025). MUHOFAZA QILISH VA BARQAROR RIVOJLANISH: EKOTURIZMNING ILMIY JIHATLARI VA MONVISO TRANSCHEGARAVIY BIOSFERA QO 'RIQXONASI TAJRIBASI TAHLILI. *Raqamli iqtisodiyot (Цифровая экономика)*, (10), 759-774.
21. Хайруллаева, Н. Н. (2017). CONDITIONS AND FEATURES OF DEVELOPMENT OF SUSTAINABLE NATURE-BASED TOURISM. In *СОВРЕМЕННОЕ ЭКОЛОГИЧЕСКОЕ СОСТОЯНИЕ ПРИРОДНОЙ СРЕДЫ И НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ РАЦИОНАЛЬНОГО ПРИРОДОПОЛЬЗОВАНИЯ* (pp. 174-177).



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 6/5

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>